

**VLADIMIR NABOKOVNING “QIROL, DAMA, VALET” ASARIDA**

**POSTMODERNIZM VA BURJUA HAYOTINING SATIRASI**

*Pulatova Sabina Sharifovna,*

*BuxDU, II bosqich tayanch doktoranti*

*Email: [sarvarsharifsabina@gmail.com](mailto:sarvarsharifsabina@gmail.com),*

*Telefon raqami: +9980933381*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Vladimir Nabokovning muhojirlilikdagi murakkab hayot yo'li, ayniqsa, uning ikkinchi romani “Qirol, dama, valet” (“Король, дама, валет”) ga qaratilgan. Nabokovning dastlabki asarlari qiyin sharoitda yozilgan bo'lsa-da, uning badiiy uslubi intellektual murakkablik va emosional chuqurlikni uyg'unlashtirishda rivojlanib borgan. Maqolada romanning asosiy qahramonlari — Drayer, Marta va Frans o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi, bu orqali xiyonat, istak va o'lim kabi mavzular yoritiladi. Nabokovning kutilmagan syujet burilishlari va burjua dunyosining tasvirlari uning adabiy mahoratini namoyon etadi, shu bilan birga o'quvchini haqiqat va realillik haqida qayta o'ylashga undaydi. Shuningdek, maqolada Nabokovning boshidan o'tkazgan shaxsiy va siyosiy sinovlari, jumladan, Rossiyadagi inqilobiy o'zgarishlar va uning shaxsiy yo'qotishlari uning adabiy qarashlariga qanday ta'sir qilgani muhokama qilinadi. “Qirol, dama, valet” Nabokovning ijodiy rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, uning adabiy ovozi va muhojirlilik, inson shaxsiyatidagi hamda taqdiridagi ziddiyatlarni tadqiq etadi.

**Kalit so'zlar:** muhojirlik, adabiyot, intellektual murakkablik, badiiy uslub, xiyonat, o'lim, adyulter mavzu, postmodernizm, satira.

**Аннотация:** Статья посвящена сложному пути Владимира Набокова в изгнании, особенно его второму роману “Король, дама, валет” Несмотря на трудности, с которыми он столкнулся в начале своей карьеры, Набоков развивал уникальный стиль, который сочетал интеллектуальную сложность с эмоциональной глубиной. В статье

анализируются отношения между персонажами романа — Драером, Мартой и Франсом, раскрывающие темы предательства, желания и смертности. Использование Набоковым неожиданных поворотных моментов и изображение буржуазного мира свидетельствуют о его мастерстве в создании произведений, которые заставляют читателя переосмысливать восприятие правды и реальности. Статья также касается влияния ранних переживаний Набокова, включая политические потрясения в России и личные утраты, на его литературное видение. “Король, дама, валет” становится важным этапом в творческом развитии Набокова, открывая новые горизонты для его художественного голоса и исследуя темы изгнания и человеческой сложности.

**Ключевые слова:** изгнание, литература, интеллектуальная сложность, стиль повествования, предательство, смертность, тема измены, постмодернизм, сатира.

*Abstract: This article explores the complex journey of Vladimir Nabokov in exile, particularly focusing on his second novel, “King, Queen, Knave” (“Король, дама, валет”). While Nabokov’s early works were written under challenging circumstances, his literary style evolved to present unique intellectual and aesthetic challenges. The article delves into the novel’s plot, which involves the relationships between Drayer, Marta, and Frans, highlighting themes of betrayal, desire, and mortality. Nabokov’s use of unexpected narrative twists and his portrayal of the bourgeois world reflect his growing mastery in blending intellectual complexity with emotional depth. Moreover, the novel’s dark humor and manipulative narrative techniques are explored, illustrating Nabokov’s skill in subverting familiar genres and forcing readers to reconsider their perceptions of truth and reality. The article also touches on how Nabokov’s early experiences, including the political upheaval in Russia and his personal loss, influenced his literary vision. Ultimately, “King, Queen, Knave” serves as a pivotal work in Nabokov’s creative development,*

*offering insights into his evolving artistic voice and the broader themes of exile and human complexity.*

**Keywords:** *exile, literature, intellectual complexity, narrative style, betrayal, mortality, theme of adultery, postmodernism, satire.*

Agar Rossiyada inqilobdan keyingi vaziyat o‘zgarmagan va Vladimir Nabokov o‘z vatanida qolganida, uning birinchi romani – “Mashenka” – aynan shu yerda chop etilib, keyinchalik “Lolita” olib kelgan shon-sharaf va boylikka erishgan bo‘lar edi. O‘sha davrning eng nufuzli tanqidchilaridan biri Ayxenvald, ehtimol, “Yangi Turgenev dunyoga keldi!” deya uni ulug‘lagan bo‘lar edi.

Biroq, muhojirlikdagi qiyinchiliklar Nabokovning yozuvchilikdan barqaror daromad topishiga yo‘l qo‘ymadi. U faqat nemis matbaasi Ulshteyn bilan tuzilgan shartnomaga tufayligina kiyim-kechaklarini yangilash va qisqa dam olish imkoniga ega bo‘ldi.

Nabokov oilasi muhojirlikda og‘ir sharoitlarda hayot kechirishgan. Ular, ko‘pincha “Mashenka” romanida tasvirlangan pansiyonlarga o‘xshash oddiy pansiyonlarda yashab, asosan rus va ingliz tilidan dars berish orqali tirikchilik qilishgan. Shunga qaramay, Nabokov ijodiy faoliyatini davom ettirdi va ayni paytda o‘zining yangi romani — “Qirol, dama, valet” ustida ish boshladi. Ushbu roman 1928 yil iyunida yozib tugatilib, 23 sentyabrda nashr etildi. Kitobning huquqlarini yana nemis matbaasi Ulshteyn sotib oldi, bu esa yosh oilaning moliyaviy ahvolini ancha yaxshiladi. Bu yutuq Nabokovlarga Parijga safar qilish, Pireneylar va Bolyuda kapalaklar tutish kabi imkoniyatlarni taqdim etdi.

Biroq, roman tanqidchilar tomonidan ehtiyyotkorlik bilan qabul qilindi. Shunga qaramay, “Qirol, dama, valet” Nabokovning ijodiy yondashuvi va o‘ziga xos adabiy uslubini namoyon etdi. Bu asarda Nabokov “begonalik muhitida yashash” g‘oyasini davom ettirdi va muhojirlik va quvg‘inlik mavzusidan chekinayotganday tuyuldi, chunki endi uning qahramonlari nemis jamiyatining vakillari bo‘lib, ular orasida tadbirdor Drayer, uning rafiqasi Marta va yosh jiyani Frans asosiy o‘rinni egallaydi.

Romanning alohida e'tiborga loyiq jihat shundaki, Nabokov eng oddiy va hatto ko'ngilxiralik bilan bog'liq bo'lib tuyuladigan syujetni hayratga soluvchi badiiy yechimlar bilan boyitadi. Bu usulni yozuvchi shaxmatdagi klassik debyutga o'xshatadi, unda oddiy harakatlar ortida raqibni qo'lga tushirish uchun yashirin tuzoq yotadi. Shu tarzda Nabokov nafaqat o'z qahramonlarini, balki o'quvchini ham ushbu tuzoqqa ilintiradi.

Roman 1920-yillar Berlini dekoratsiyalari, o'ziga xos go'zallik va boy madaniy qatlamlarga boy muhitda sodir bo'ladi. Bunda Nabokov burjua hayotining eskirgan va hattoki bir oz jirkanch bo'lib tuyuladigan adyulter mavzusi (bu adabiyotda oila va turmush o'rtog'iga xiyonat qilish) bilan tanish tasvirlarni ostin-ustun qiladi. Shu bilan birga, u Qirol obrazini mehribon, ijodkor va tashabbuskor shaxs sifatida tasvirlar ekan, Damaga va Valetga nisbatan kuchli nafrat va bepisandlikni aks ettiradi.

Shunday qilib, Nabokovning "Qirol, dama, valet" romani, avvalgi asarlari kabi, uning o'ziga xos adabiy uslubini yanada rivojlantiradi va o'quvchini tanish vaziyatlarga yangi nuqtai nazardan qarashga majbur qiladi.

"Qirol, dama, valet" romanida Nabokov jamiyatning ko'zga ko'rinnmas va murakkab qatlamlarini o'rganishda davom etadi. Burjua vakili va xiyonat qilingan Drayer obrazi, garchi u muallifning shaxsiy ovozini ifoda qilmasa ham, o'zining g'aroyib va o'ziga xos xususiyatlari bilan alohida e'tiborga sazovor. Drayer o'ziga xos hazil bilan dunyoning go'yo o'yinchoq itdek uning e'tiborini kutib turganini his qiladi. Shu bilan birga, uning oddiy burjua hayotidagi soddaligini qiyinchilikka to'la ichki ziddiyatlar va halokatga olib keluvchi kuchli iroda urinishlari ostin-ustun qiladi.

Drayerning rafiqasi Marta uni o'ldirish zarurligiga ishontirib, qotillik rejasini amalga oshirish uchun Fransni o'z maqsadi yo'lida ishlataladi. Ammo qotillik sodir bo'lishidan avval, Drayer o'zining kelajakdagi qismati haqida bilmagan holda, kriminal muzey ko'rgazmasida gapirib shunday deydi: "Bu kolleksiyaga tushish uchun odam zerikarli, iste'dodsiz, tor fikrli yoki aqlidan ozgan va jizzaki bo'lishi kerak." Ushbu fikrlar Nabokovning hayotidagi real

voqealarni aks ettiradi: yozuvchining otasi siyosiy to‘polonlar chog‘ida o‘ta jizzaki va qasoskor shaxs tomonidan o‘ldirilgan edi. Shu nuqtai nazardan, Drayerning ushbu ta’riflari Nabokovning kelajakdagi “Qatlga taklif” asariga zamin yaratadi.

Drayerning o‘limni tasavvur qilishi, uni ichki azob va eng yuqori darajadagi zerikish deb baholashi, romandagi katta falsafiy qatlamlardan birini tashkil qiladi. Bunday yondashuv orqali Nabokov o‘lim, azob va inson hayoti o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ochib beradi. Shu bilan birga, bu roman Frans obrazining halokatli taqdiri orqali Nabokovning “Lujinning himoyasi” asaridagi fojiali holatni oldindan his qilish imkonini beradi.

Roman Nabokovning o‘z uslubini shakllantirish va tajriba o‘tkazish maydoniga aylanadi. Ayniqsa, erotik sahnalarining ta’sirchanligi va ta’riflash san’atidagi chuqurlik uning yozuvchilik mahoratini ko‘rsatadi. Bu uslub keyinchalik Nabokovning yirik asarlarida yanada rivojlanadi. Shu bilan birga, Martaning o‘ta ayyor obrazi Nabokov ijodida ayollarga nisbatan ichki adovat motivining ilk belgilari sifatida namoyon bo‘ladi.

Romanning alohida qimmati shundaki, unda hikoya qilish uslubi va o‘quvchini jalb qilishning yangi vositalari sinab ko‘riladi. Nabokov tanish syujet va shakllarni kutilmagan tarzda o‘zgartirib, o‘quvchini hodisalarining murakkab rivojiga jalb etadi. O‘quvchi o‘zini tanish muhitda his qilgan holda, bu muhitdagi o‘zgarishlarni va dramatik burilishlarni qiziqish bilan kuzatadi. Bu yondashuv Nabokovning asarlarini boshqa adabiy oqimlardan ajratib turuvchi muhim jihatdir.

Shunday qilib, “Qirol, dama, valet” romani Nabokovning ijodiy evolyutsiyasida muhim bosqich bo‘lib, uning keyingi asarlariga olib boruvchi yo‘lni ochib beradi va yozuvchilik mahoratining o‘ziga xos tajriba maydoniga aylanadi.

Nabokovning “Qirol, dama, valet” romanida muallif o‘quvchi bilan murakkab o‘yin boshlaydi. Dastlab, hikoya oddiy sarguzasht yoki romantik drama bo‘lib tuyuladi. Ammo voqealar rivojida Nabokov o‘quvchini u

sezmagan holda boshqara boshlaydi. O'quvchi hikoyaning "shaytoniy" tabiatini tushunib yetguniga qadar, uni oddiy o'yin sifatida qabul qiladi. Shu jarayonda o'quvchi hikoyaning "Momo Havo"dan boshlanib, tobora murakkab, odamlarning ichki ziddiyatlari va fojiali taqdirlari o'zaro chirmashib ketgan botqoqlikka aylanayotganini anglaydi.

Bu roman, klassik "Anna Karenina" va "Madam Bovari" kabi asarlardan yiroq bo'lsa-da, ularning asosiy syujet elementlarini yangicha yondashuvda aks ettiradi. Qahramonlar – er Drayer, oshiq Frans va qotil xotin Marta – Nabokovning postmodern ruhdagi murakkab qiyofalarni yaratish mahoratini namoyon etadi. Drayerni cho'ktirish rejasi bir qarashda "burjua Ledi Makbeti"ni eslatgan bo'lsa-da, oxirida o'z dramatik tusini yo'qotadi. Drayerning boylik va texnologiyaga bo'lgan ishtiyoqi (robot-mannekenlar loyihasi) uni qutqaradi. Ammo qotillikdan voz kechish dramatik bo'lishi kerak bo'lgan yakunni kulguli tusga aylantiradi. Marta o'tkir shamollash tufayli vafot etadi, Drayer qayg'uga botadi, Frans esa ozodlikni kulgu bilan qarshi oladi.

Nabokovning kulgusi — bu Gogolning kulgusi kabi ikki qirrali. U faqat qahramonlardan emas, balki o'quvchi va, bir qadar, o'zining ustidan ham kuladi. Elen Payferning ta'kidlashicha, Nabokovning asosiy maqsadi — haqiqatni yaratish emas, balki haqiqat yaratish jarayonining sun'iyligini ochib berishdir. Bu yondashuv o'quvchini faqat qahramonlarning hayoti emas, balki o'zining kundalik dunyo haqidagi tasavvurlarini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Nabokovning badiiy manipulyatsiyalari orqali u hayotning nafaqat o'zini, balki uni anglash jarayonini ham tanqid qiladi.

"Qirol, dama, valet" romanidagi hikoya uslubi, ayniqsa, o'quvchiga tanish elementlarni kutilmagan burilishlar bilan o'zgartirish qobiliyati, Nabokovning boshqa asarlarida yanada rivojlanadi. Masalan, "Lujinning himoyasi" romani bu yo'nalishda yana bir qadam tashlaydi. "Qirol, dama, valet"da Fransning shaxsiy halokatga uchrashi oldindan "Lujinning himoyasi"dagi qahramonning taqdirini ko'rsatib beradi. Shaxmat kombinatsiyalari orqali Lujin shaxsiy ziddiyatlarining

murakkabligini ifodalaydi, bu esa Nabokov ijodidagi intellektual va estetik qiyinchiliklarning timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Bu o'rnarda Nabokovning Rossiyaga va o'tmishga bo'lgan munosabatini anglash mumkin. "Mashenka" romanining insoniy issiqligi va o'tmishiga bo'lgan sog'inch Nabokovning butun ijodini yoritib turgan nурdir. Shu bilan birga, "Qirol, dama, valet" va boshqa asarlarda o'tmish o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi va yangi badiiy shakllarga kiritiladi. U bu jarayonda o'tmishni butunlay unutishga yo'l qo'ymaydi, balki uni yangicha, estetik yondashuv bilan takroran tiklaydi.

Shunday qilib, Nabokovning bu romanlari uning ijodidagi muhim o'zgarishlarni aks ettiradi. U o'quvchini haqiqat, tasavvur va hikoya chizig'i haqidagi o'z tasavvurlarini qayta ko'rib chiqishga chorlaydi. Nabokovning so'z ustaligida nafaqat hikoyaning mazmuni, balki hikoya qilish uslubining o'zi ham o'ziga xos badiiy qahramonga aylanadi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Blot, Jean. *Nabokov*. Russian Baltic Information Center Blitz, 2000.
2. Kurbanova, Nodira Rozikovna. "MARK TWAIN IS A PROMINENT REPRESENTATIVE OF AMERICAN REALISM." *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, vol. 3, no. 05, May 2022, pp. 64–68, doi:10.37547/philological-crjps-03-05-15.
3. Nabokov, Vladimir. *King, Queen, Knave*. McGraw-Hill, 1970.
4. Nabokov, Vladimir. *Speak, Memory: An Autobiography Revisited*. Putnam, 1966.
5. Nabokov, Vladimir. *Strong Opinions*. McGraw-Hill, 1970.
6. Набоков, Владимир. *Король, дама, валет*, 2023.
7. Pulatova, Sabina Sharifovna. "MORAL ASPECTS IN VLADIMIR NABOKOV'S NOVEL 'ADA.'" *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH*, vol. 12, no. 05, 2023, pp. 63–65.  
<https://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1760>.

- 
- 
8. Rozikovna, Kurbonova Nodira, and Mustafoeva Makhfuzza. "ORIGIN AND FEATURES OF THE SONNET GENRE." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, vol. 11, 2023, pp. 141–147.
  9. Rozikovna, Kurbonova N. "The Description of Some Images in 'Divine Comedy' by Dante Alighieri." *International Journal on Integrated Education*, vol. 3, no. 3, 2020, pp. 17–19, doi:10.31149/ijie.v3i3.79.
  10. Sharifovna, P. S. "Interpretation of Valuable Moral Concepts in the Novel of Somerset Maugham 'The Moon and Sixpence.'" *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, vol. 2, no. 2, 2022, pp. 70–75.
  11. Sh, Pulatova S. "Factors Leading to Family Happiness in the Short Story 'A Marriage of Convenience' by William Somerset Maugham." *Buxdu Ilmiy Axboroti*, vol. 1, 2023, p. 3.
  12. Sicker, Philip. "Practicing Nostalgia: Time and Memory in Nabokov's Early Russian Fiction." *Studies in 20th Century Literature*, vol. 11, no. 2, 1987, article 7, <http://dx.doi.org/10.4148/2334-4415.1200>.
  13. "KRISTOFOR MARLONING 'BUYUK TEMURLANG' ASARIDA TEMUR OBRAZINI YARATISHDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA UYG 'UNLIGI." *Scientific Impulse*, vol. 1, no. 3, 2022, pp. 1038–1042.
  14. "[https://youtu.be/KDacsEyoIU0?si=U4FCQ6wL\\_sjnFJya](https://youtu.be/KDacsEyoIU0?si=U4FCQ6wL_sjnFJya)."